XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI
JARQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING QARORI

Jarqo‘rg‘on tumani, O‘zbekiston ko‘chasi 13-uy. 190600, tel.: (+99876)432-10-08, www.jarqorgon.uz

2023 - yil 11 - yanvar VI-48-8-8-112-K/23 Jarqo‘rg‘on tuman hokimligi

Jarqo‘rg‘on tumanida Yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2023-yil uchun yer solig‘i stavkalarini belgilash haqida

O‘zbekistan Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalariga asosan Jarqo‘rg‘on tumanida Yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2023-yil uchun yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash yuzasidan bergan hisoboti tinglandi va bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. Tuman soliq inspeksiyasi (R.Sattorov) O‘zbekistan Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalariga asosan tumanda Yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2023-yil uchun yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash yuzasidan bergan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Moliya bo‘limi, tuman Davlat soliq inspeksiyasi (R.Sattorov)ga:

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun loyihasida tuman bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yuridik shaxslarning 1 gektar yeri uchun 29,0 mln so‘m hamda jismoniy shaxslarning 1 kvadrat metr yeri uchun 268 so‘m bazaviy soliq stavkalari bo‘yicha taklif kiritilganligi (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun tuman kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkasiga 0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalarini belgilashi mumkinligi yuzasidan Surxondaryo televideniyasi bilan hamkorlikda press klublar va chiqishlarni amalga oshirish va televideniyasi orqali ommaga taqdim etish;

belgilangan yer solig‘i stavkalariga (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun, ularning hududlarida joylashgan daha, mavze, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llashlari yuzasidan ma’lumotlarni ta’minlab berish;

Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari uchun keyingi soliq davriga tasdiqlangan soliq stavkalarini besh kun ichida soliq to‘lovchilarga ma’lumot uchun yetkazilishini ta’minlash;

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mavjud yer maydonlari uchun hisoblangan yer soliqlarini o‘z vaqtida va to‘liq to‘lab borishlarini nazoratga olish;

yuridik va jismoniy shaxslarga hisoblangan yer solig‘i va undirilgan soliqlari to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashiga axborot berib borish vazifasi yuklatilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilanadigan soliq stavkalari asosida (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun tuman kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati, “Jarqo‘rg‘on” gazetasi tahririyati (A.Payonov) mazkur loyihani amalga oshirishdan maqsad va uning tuman iqtisodiyotini yuksaltirishdagi afzalliklari to‘g‘risida ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

5. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi

Kengash raisi **B.A.O'raqov**

Xalq deputatlari Jarqo‘rg‘on tuman
Kengashining
2023 yil 11 yanvardagi
VI-48-8-8-112-K/23-son qaroriga
1-ilova

Jarqo‘rg‘on tumanidagi mahalla fuqarolar yig‘inlari bo‘yicha yuridik va jismoniy shaxslar uchun belgilangan yer solig‘i bazaviy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsentlar

2023-yil

№	Mahalla fuqarolar yig‘inlari nomi	Yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi		Jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi	
		Koeffitsent miqdori	Soliq summasi (1 gektar uchun, so‘mda)	Koeffitsent miqdori	Soliq summasi (1 kv.m uchun, so‘mda)
1	A.Navoiy	0,90	32103000,00	0,70	234,50
2	Avlod	0,80	28536000,00	0,70	234,50
3	Beshbuloq	0,80	28536000,00	0,70	234,50
4	Bobotog‘	0,80	28536000,00	0,70	154,50
5	Bobur	0,90	32103000,00	0,70	234,50
6	Boymoqli	0,80	28536000,00	0,70	234,50
7	Guliston	0,80	28536000,00	0,70	234,50
8	Gulxovuz	0,80	28536000,00	0,70	154,50
9	G‘ur-g‘ur	0,80	28536000,00	0,70	234,50
10	Dam	0,90	32103000,00	0,70	234,50
11	Dehkonobod	0,80	28536000,00	0,70	234,50
12	Do‘stlik	1,10	39237000,00	0,75	251,25
13	Yoshlik	0,80	28536000,00	0,70	234,50
14	Janub qalqonlari	0,90	32103000,00	0,70	234,50
15	Jarqo‘rg‘on Minorasi	0,90	32103000,00	0,70	234,50
16	Jinjaktepa	0,80	28536000,00	0,70	234,50
17	Zartepa	0,80	28536000,00	0,70	154,50
18	Ismoiltepa	0,90	32103000,00	0,70	234,50
19	Istiqlol	1,10	39237000,00	0,75	251,25
20	Kamar	0,80	28536000,00	0,70	154,50
21	Qiron	0,80	28536000,00	0,70	234,50
22	Qorabura	0,90	32103000,00	0,70	234,50
23	Qorayog‘och	0,90	32103000,00	0,70	234,50
24	Qorayontoq	0,80	28536000,00	0,70	154,50

25	Qoraqursoq	0,90	32103000,00	0,70	234,50
26	Qo‘ldovli	0,90	32103000,00	0,70	234,50
27	Qumqishloq	0,80	28536000,00	0,70	234,50
28	Kunchiqish	0,90	32103000,00	0,70	234,50
29	Qushtepa	0,80	28536000,00	0,70	154,50
30	Loyqand	0,80	28536000,00	0,70	234,50
31	Madaniyat	0,80	28536000,00	0,70	234,50
32	Markaziy Surxon	0,90	32103000,00	0,70	234,50
33	Maslaxattepa	0,80	28536000,00	0,70	234,50
34	Matonat	0,80	28536000,00	0,70	234,50
35	Mehnatobod	0,80	28536000,00	0,70	234,50
36	Mehnat-roxat	0,90	32103000,00	0,70	234,50
37	Mingchinor	0,80	28536000,00	0,70	234,50
38	Mustaqillik	0,80	28536000,00	0,70	154,50
39	Navro‘z	1,10	39237000,00	0,75	251,25
40	Namuna	0,90	32103000,00	0,70	234,50
41	Neftchilar	0,90	32103000,00	0,70	234,50
42	Nurli diyor	1,10	39237000,00	0,75	251,25
43	Obi hayot	0,80	28536000,00	0,70	234,50
44	Obod guzar	0,80	28536000,00	0,70	234,50
45	Oqtepa	0,80	28536000,00	0,70	234,50
46	Oltintepa	0,80	28536000,00	0,70	234,50
47	Oftobqo‘rg‘on	0,80	28536000,00	0,70	234,50
48	Paxtazavod	1,10	39237000,00	0,75	251,25
49	Paxtaobod	0,80	28536000,00	0,70	234,50
50	Polvonlar yurti	0,80	28536000,00	0,70	234,50
51	Porloq yulduz	0,80	28536000,00	0,70	234,50
52	Soqchi	0,90	32103000,00	0,70	234,50
53	Surxon sohili	1,10	39237000,00	0,75	251,25
54	O‘zbekiston	0,80	28536000,00	0,70	234,50
55	Uzumzor	0,80	28536000,00	0,70	154,50
56	Ulug‘bek	1,10	39237000,00	0,75	251,25
57	O‘rikli	0,80	28536000,00	0,70	234,50
58	Hayitobod	0,80	28536000,00	0,70	234,50
59	Xalqobod	0,80	28536000,00	0,70	154,50
60	Xo‘jaqishloq	0,80	28536000,00	0,70	234,50
61	Eskiqishloq	0,80	28536000,00	0,70	234,50

62	Yangiariq	0,80	28536000,00	0,70	234,50
63	Yangiqishloq	0,80	28536000,00	0,70	234,50
64	Yangiturmush	0,80	28536000,00	0,70	234,50
65	Yangiusul	0,80	28536000,00	0,70	234,50
66	Yangiobod	1,10	39237000,00	0,70	154,50